

OROL DENGIZI QURIGAN QISMI FLORASI TAVSIFI

Safarniyozov Xushnudjon Omonboy o‘g‘li

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti dorivor ósimliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi yo‘nalishi 2 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Yeshchanova Sayyora Shukurilla qizi

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ipakchilik kafedrasи

v.v.b dotsenti

Janubiy Orolbo‘yi mintaqasida keyingi yillarda shakllangan mavjud ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar oqibatlarining darajasi xalqaro va global miqyosda tus olmoqda. Ushbu mintaqadagi aksariyat tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, cho’llanish va qurg‘oqchilik jarayonlari ekstremal bo‘lib bormoqda, bu esa turli xil ekologik tizimlarning nomutanosibligiga, biotik potentsialning buzilishiga va tabiiy-xo‘jalik kompleksining pasayishiga olib kelmoqda. Orol dengizi 1960-yillargacha dunyodagi to‘rtinchi yirik ichki suv havzasi edi. Umumiy maydoni 68900 km² (Miklin, 2014). Orol dengizining g‘arbiy qirg‘og‘i Ustyurt platosining sharqiy chekkasida, ko‘ldan 150 m balandlikda joylashgan edi. Janubi-g‘arbida Qoraqum cho‘li, shimoli-sharqida Qizilqum cho‘li joylashgan. Orol dengizining uzunligi 1960 yilgacha shimoldan janubga 426 km, sharqdan g‘arba esa 284 km uzunlikda edi. O‘rtacha chuqurligi 16 m, maksimali 69 m (Miklin, 2007 g.; Cawater, , 2021). Keng hududning qismlaridan kelib chiqqan holda, sayoz suv omborining chuqurligi, shuning uchun u suv sathining o‘ziga juda sezgir. Orolbo‘yida iqlim keskin kontinental. Yog‘ingarchilik miqdori kam. Yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik 250 mm dan kam va potensial yillik bug‘lanish 800 mm dan 1300 mm gacha (Shen va boshq. 2019; Kim va boshq. 2020) harorat shimoldan janubga qarab ortadi, o‘rtacha oylik minimal ko‘rsatkich yanvarda 12° C dan 0 °C gacha, maksimal iyulda 24°C dan 32°C gacha. Orol dengizi 1960-yillardan boshlab keskin qisqardi, bu daryo oqimining keskin qisqarishi bilan bog‘liq edi. Amudaryo va Sirdaryo (Miklin, 2014). Bu pasayish, asosan, qishloq xo‘jaligi

maydonlarini sug‘orish uchun suv olish hisobiga sodir bo‘ldi (Bortnik, 1999; Cretaux et al., 2013)(1-rasm).



1-rasm. Orol dengizi dinamikasining umumiy ko‘rinishi 1986 - 2022 yy

Janubiy Orolbo‘yi mintaqasidagi dorivor o‘simliklar juda yaxshi o‘rganilgan [1]. Ammo so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish, ayniqsa, ularni davolashda qo‘llashning yangi usullari va ularning ta’sirini o‘rganish usullari bilan bog‘liq. Yangi ekologik sharoitlarda tarqalish joylarining o‘zgarishi ham qiziqish uyg‘otadi. Hozirgi vaqtida Orolbo‘yida dorivor o‘simlik materiallarining zamonaviy resurslari va ularning assortimentini o‘rganish zarurati mavjud. Ilmiy adabiyotlardan Orol bo‘yi qurigan qismida tarqalgan o‘simlik dunyosini o‘rganib chiqganimizda quyidagi jadvalni keltirdik. Orol dengizi qurigan qismi florasidegi 176 tur o‘simlikning 30,9% psammofitlar hisoblanadi. Psammofit turlar kóp emas, 53 turni tashkil qiladi. Ulardan 18,8% (10 tur) *Amaranthaceae* oilasiga, 13,2% (8 tur) *Polygonaceae* oilasiga, 11,1% (6 tur) *Asteraceae* oilasiga, 9,4% (5-tur) *Fabaceae* ham *Poaceae* oilalariga tegishli hisoblanadi (1-jadval). Bundan tashqari *Tamaricaceae* oilasiga 3 tur (*Tamarix ramosissima*, *T.laxa* *T. hispida*), *Amaryllidaceae*, *Apiaceae* ham *Ephedraceae* oilasida 2 turdan qolgan *Caryophyllaceae*, *Convolvulaceae*, *Cyperaceae*, *Asparagaceae*, *Euphorbiaceae*, *Geraniaceae*, *Nitrariaceae*, *Orobanchaceae*, *Solanaceae*, *Zygophyllaceae* oilalarida esa bitta psomofitlar tarqalgan. Dominat

psammofitlardan *Artemisia terrae-alba*, *Haloxylon ammodendron*, *H.persicum*, *Xylosalsola richteri*, *Carex physodes*, *Ephedra strobilacee*, *Ephedra distachya*, *Ammodendron conollyi*, *Astragalus ammodendron*, *Eremosparton aphyllum*, *Stipa richteriana*, *S. szovitsiana*, *Stipagrostis pennata*, *S.karelinii*, *Calligonum aconthopterum*, *C.aphyllum*, *C. eriopodium*, *C. caput-medusae*, *Tamarix ramosissima*, *T.hispida* keng tarqalgan.

1-jadval

Orol dengizi qurigan qismi florasining taksonomik tarkibi

Nº	Oila	Turkum	Tur	Nº	oila	Turkum	Tur
1.	<i>Amaranthaceae</i>	24	44	18.	<i>Zygophyllaceae</i>	2	2
2.	<i>Asteraceae</i>	16	22	19.	<i>Papaveraceae</i>	1	2
3.	<i>Fabaceae</i>	6	16	20.	<i>Limoniaceae</i>	1	2
4.	<i>Poaceae</i>	10	14	21.	<i>Ephedraceae</i>	1	2
5.	<i>Brassicaceae</i>	8	11	22.	<i>Euphorbiaceae</i>	1	2
6.	<i>Polygonaceae</i>	3	11	23.	<i>Cyperaceae</i>	1	2
7.	<i>Tamaricaceae</i>	1	6	24.	<i>Asparagaceae</i>	1	1
8.	<i>Boraginaceae</i>	5	5	25.	<i>Apocynaceae</i>	1	1
9.	<i>Caryophyllaceae</i>	3	4	26.	<i>Biebersteinaceae</i>	1	1
10.	<i>Liliaceae</i>	3	3	27.	<i>Capparaceae</i>	1	1
11.	<i>Ranunculaceae</i>	2	3	28.	<i>Fumariaceae</i>	1	1
12.	<i>Nitrariaceae</i>	2	3	29.	<i>Geraniaceae</i>	1	1
13.	<i>Convolvulaceae</i>	2	3	30.	<i>Hypecoaceae</i>	1	1
14.	<i>Araceae</i>	2	2	31.	<i>Orobanchaceae</i>	1	1
15.	<i>Apiaceae</i>	2	2	32.	<i>Rubiaceae</i>	1	1
16.	<i>Amaryllidaceae</i>	1	2	33.	<i>Rutaceae</i>	1	1
17.	<i>Solanaceae</i>	2	2	34.	<i>Typhaceae</i>	1	1
Jámi:					34	110	176

Turning biologik xususiyatlarini o‘rganishda muhim xususiyatlardan biri - uning turli qismlardagi populyasiyalar dinamikasi va holatidir. Turli ekologik va geografik sharoitlarda populyasiyalarni tahlil qilish turning tarqalishini va uning ko‘pligini cheklovchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, Orolbo‘yi o‘simplik qoplaming yuqori dinamikasi jamoalarning hozirgi fazoviy tarqalishini, ularning turli xil antropogen ta’sirlarga chidamliliginini va undan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va qayta tiklash chora-tadbirlarini aniqlash uchun davriy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Yashash joylarining sezilarli antropogen o‘zgarishi tufayli ekologik sifatli dorivor turlarni yig‘ish, shuningdek, hududiy o‘simplik zahiralarini ko‘paytirish amaliy ekologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бахиев А., Сарыбаев Б., Жалгасбаев. Флористические и эколого-геоботанические исследования в Каракалпакии: в 3-х т. – Т. 2. – Ташкент: Фан, 1988. С. 37-47-40-48-86-125.
2. Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана.-Нукус:Фан, 1978.- 139с.
3. Тлеумуратова Б.С., Мамбетуллаева С.М. Форсинг растительного слоя на эколого-метеорологические процессы в Южном Приаралье// Журнал «Экологический Вестник», 2016.- № 2.- С. 9-10.
4. Тлеумуратова Б.С., Мамбетуллаева С.М. Forsings of ecosystems transformations in Priaralie //European science review, 2016.- №11-12.- p. 21-24.
5. Шеримбетов С., Пратов У., Мухамедов Р. Классификация растений южного высыхающего дна Аральского моря // Вестник Санкт-Петербургского Университета, 2015. СерияБиология. Сер.3., Вып. 4. – С. 39-50.